“O’zbekiston madaniy merosi va zamonaviy san’ati” mavzusida konferensiyasi o’tkazildi

O’zR FA San’atshunoslik institutida “O’zbekiston madaniy merosi va zamonaviy san’ati” mavzusida respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi o’tkazildi. Konferensiyada ustoz san’atshunoslar bilan bir qatorda Institutning yosh olimlari va doktorantlari ham faol ishtirok etishdi. Shuningdek, anjumanda Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI, O’zbekiston davlat konservatoriyasi, O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Xoreografiya akademiyasi, O’zbekiston xalqaro Islom sivilizatsiyasi markazidan tashrif buyurgan ilmiy xodimlar va o’qituvchilar ham o’z ma’ruzalari qatnashishdi.

Konferensiyaing ochilishida Institut direktori Shokir Pidayev so’zga chiqib, konferensiyaning ahamiyati, Institutning bugungi faoliyati, san’atshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar haqida qisqacha to’xtaldi. So’ngra O’zR FA vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimovning konferensiya ishtirokchilariga yo’llagan tabrigi o’qib eshittirildi.

Shundan keyin konferensiya ishi sho’ba majlislarida davom ettirildi. Konferensiyaning “San’at tarixi va me’morchilik”, “Tomosha san’atlari”, “Tasviriy va amaliy bezak san’ati”, “Musiqa san’ati” kabi sho’’balarida 40 dan ortiq ma’ruzalar tinglandi.

Konferensiya ko’tarinki ruhda, ishchan kayfiyatda va o’ziga xos master-klass tarzida o’tdi. Unda eng yaxshi ma’ruza qilgan tadqiqotchilar sertifikat bilan taqdirlandi.